QIZILPOYACHA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI

Adijon viloyati Buloqboshi tumani
20-maktab biologiya fani o`qituvchisi:
Sodiqova Mohigul Maxamattairovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Chelidonium majus (qizilpoyacha) o'simligining botanik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda shifobaxsh va zaharli jihatlari yoritilgan. O'simlik tarkibidagi biologik faol moddalar, ayniqsa alkaloidlarning inson organizmiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, qizilpoyachaning xalq tabobatidagi qo'llanilishi, uning foydali xususiyatlari bilan birga noto'g'ri foydalanilganda yuzaga keladigan xavf-xatarlar haqida ma'lumot beriladi. O'simlikdan oqilona va xavfsiz foydalanish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *qizilpoyacha, dorivor o'simlik, alkaloidlar, zaharlilik, xalq tabobati, shifobaxsh o'simlik.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается растение Chelidonium majus (чистотел большой), его ботанические особенности, химический состав, а также лечебные и ядовитые свойства. Особое внимание уделяется биологически активным веществам, в частности алкалоидам, и их влиянию на организм человека. Также освещается применение растения в народной медицине, его полезные свойства и возможные риски при неправильном использовании. Обоснована необходимость безопасного и рационального применения данного растения.*

Ключевые слова: *чистотел, лекарственное растение, алкалоиды, токсичность, народная медицина, лечебные свойства.*

Abstract: *This article examines the plant Chelidonium majus (greater celandine), including its botanical characteristics, chemical composition, and*

both medicinal and toxic properties. Special attention is given to biologically active compounds, particularly alkaloids, and their effects on the human body. The study also highlights its use in traditional medicine, beneficial effects, and potential risks associated with improper use. The importance of safe and rational application of this plant is emphasized.

Keywords: *greater celandine, medicinal plant, alkaloids, toxicity, traditional medicine, healing properties.*

Tabiatda shunday o‘simliklar borki, ular bir vaqtning o‘zida ham shifo manbai, ham xavfli modda bo‘lishi mumkin. Shunday o‘simliklardan biri — qizilpoyacha bo‘lib, u ilmiy adabiyotlarda Chelidonium majus nomi bilan tanilgan. Ushbu o‘simlik qadim zamonlardan beri xalq tabobatida keng qo‘llanib kelinadi. Uning tarkibidagi biologik faol moddalar organizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, noto‘g‘ri qo‘llanganda zaharlanishga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli qizilpoyacha o‘simligini ilmiy jihatdan o‘rganish va undan to‘g‘ri foydalanish muhim hisoblanadi. Qizilpoyacha ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, balandligi odatda 30–80 sm gacha yetadi. Poyasi mo‘rt bo‘lib, sindirilganda ichidan sariq yoki to‘q sariq rangli shira ajraladi. Barglari patsimon bo‘lingan, gullari esa mayda va sariq rangda bo‘ladi. O‘simlik asosan soyali joylarda, bog‘larda, yo‘l chetlarida va nam tuproqlarda o‘sadi.

Kunlardan bir kun o`rmon yoqasidan o`lja izlab urgan ovchi o`rmon ichidan chiqib kelayotgan bahaybat to`ng`izni ko`rib o`zini panaga olibdi va qulay fursatni kutib hayojon bilan uni kuzata boshlabdi. Yirtqich esa goh pishqirib, goh yer tirnab, goho oyoq ostidagi o`t-o`lanlarni uzib yeb borgan sari ovchiga yaqinlashib kelar edi. To`ng`izni peshonasini mo`ljalga olgan ovchi, miltiq tepkisini endi bosay deb turgan vaqtda kutilmagan voqea ro`y beribdi. Dahshat bilan kelayotgan bahaybat to`ng`iz gursillab yerga ag`darilibdi va kuchli xirillab, oyoqlarini yerga urib tipirchilay boshlabdi. Bunday ahvolni umrida birinchi marta uchratgan ovchi o`z ko`ziga ishonmas ekan. Oradan bir necha daqiqa vaqt o`tgach, hayvonning xirillashi to`xtaydi va u butunlay sulayib qoladi. Ehtiyotlik bilan yirtqich oldiga kelgan ovchi uning o`lib yotganini ko`rib juda hayron bo`libdi, chunki hayvon tanasida favqulodda o`limga sababchi bo`luvchi hech qanday jarohat izlari va hatto tirnalgan yeri ham yo`q edi. Faqat uning yarim ochiq qolgan og`zidan, yani tishlari orasidan mahkam siqilgan, lekin hali chaynashga ulgurmagan bir tutam sariq gulli o`t ko`rinib turardi. Buni ko`rgan ovchi tasodifiy o`limni sababchisi, yani yirtqichni o`ldiruvchi shu o`t bo`lsa kerak, degan fikrga kelibdi.

Shu-shu bu sariq gulli nozik va xushbo`y o`simlikni odamlar Zveraboy (yirtqichni o`ldiruvchi) degan dahshatli nom bilan atay boshlashibdi. O`zbekistonda bu o`simlik qizilpoycha deb ataladi. Qizilpoycha dalachoydoshlarga mansub ko`p yillik o`t. poyasi 30-35 sm,yuqori qismidan shoxlangan, ostki qismi qizil. (qizilpoycha, yani qiziloyoqcha nomi bu o`simlikning shu belgisiga qarab berilgan bo`lsa kerak). Barglari mayda poyada qarama –qarshi o`rnashgan. Bargi juda ko`p,yaltiroq bezchalar bilan qoplangan. Gullari sariq poya uchidagi qalqonsimon to`pgulga joylashgan.O`simlik ayniqsa uning gullari xushbo`y hidli. U martning ikkinchi yarmida yerdan unib chiqadi,iyundan boshlab, to avgustgacha gullaydi. Oldingi gullaridan iyuldayoq meva hosil bo`ladi. Oktabrda qizilpoychaning urug`lari batomom pishib yer ustki qismi quriydi.

Qizilpoyacha tarkibida ko‘plab biologik faol moddalar mavjud:

• Alkaloidlar (chelidonin, sanguinarin va boshqalar)

• Flavonoidlar

• Organik kislotalar

• Vitaminlar. Aynan alkaloidlar o‘simlikning ham shifobaxsh, ham zaharli xususiyatini belgilaydi.

Shifobaxsh xususiyatlari: Qizilpoyacha xalq tabobatida keng qo‘llaniladi:

• Teri kasalliklari: so‘gal, temiratki va yaralarni davolashda

• Yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida

• Jigar va o‘t yo‘llari faoliyatini yaxshilashda

• Antibakterial va antivirus ta’sirga ega. Ko‘pincha uning shirasi tashqi qo‘llanib, teri muammolarini bartaraf etishda samarali natija beradi.

Zaharli xususiyatlari: Qizilpoyacha tarkibidagi alkaloidlar sababli ehtiyotsiz qo‘llanishi xavf tug‘diradi:

• Ko‘p miqdorda iste’mol qilish zaharlanishga olib keladi

• Asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi

• Ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi, qusish kabi belgilar yuzaga keladi. Ayniqsa ichki iste’molda me’yorni oshirish jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Qo‘llashda ehtiyot choralari:

• Faqat mutaxassis tavsiyasi bilan qo‘llash kerak

• Dozaga qat’iy rioya qilish zarur

• Homilador ayollar va bolalar uchun tavsiya etilmaydi

• Tashqi qo‘llash ichkiga nisbatan xavfsizroq

Qizilpoycha O`zbekistonda adirlardan boshlab, to tog`ning o,rta qismigacha bo`lgan yerida ko`plab o`sadi. U O`rta Osiyoning hamma tog`li tumanlarida Kavkazda, Sibirda va G``arbiy Yevropada ham tarqalgan. So`ngi vaqtlarda uning urug`i Shimoliy Amerikaga ham borib qolgan. Qililpoychani

fan olamiga birinchi bo`lib fransuz olimi Karl Linney 1753- yilda olib kirgan va unga Xiperikum deb nom bergan.

Yuqorida keltirilgan rivoyatda bu o`simlikning qotillik qudrati haddan tashqari oshirib yuborilganligi o`z-o`zidan ko`rinib turibdi, lekin shamol bo`lmasa daraxtning uchi qimirlamasligi ham hammaga ma`lum. Bu o`simlik zaharli ekanligini ilm-fan va chorvadorlar tajribasi allaqachon tasdiqlab berdi. Qizilpoycha hayvonlarda quyosh nuriga nisbatan sezuvchanlikni juda oshirib yuborar ekan. Bu holat qora rangli hayvonlarda sezilmasa ham oq rangli – albinoz, yani terisi pigmentlardan mahrum bo`lgan hayvonlarda og`ir zaharlanishni vujudga keltiradi. Kimyoviy tekshirishlar natijasida qizilpoychaning bargida 10% oshlovchi moddalar ,0,1% alkaloidlar, saponinlar va giperisin deb nomlangan pigment borligi aniqlangan. Bu o`simlik zaharliligi ham shu pigment bilan bog`liqdir. Giperisin hammadan ko`ra o`simlikning gullash davrida bargi va gullarida ko`proq bo`ladi. Shuning uchun ham qizilpoyacha g`unchalash va gullash davrida hayvonlar uchun ancha xavfli hisoblanadi. Oq va chovkar tusdagi qo`ylar, echkilar, qisman qoramol, cho`chqalar va otlar ham zaharlanadi. Boshqa rangdagi hayvonlarda zaharlanish alomatlari ko`rinmaydi. Buning isboti uchun dengiz cho`chqalarida tajriba o`tkazilgan. Qizilpoycha bilan boqilgan dengiz cho`chqalarining faqat oq rangdagilarigina 48 soatdan so`ng zaharlangan, boshqa rangdagilarda esa zaharlanish alomatlari mutloqo ko`rinmaydi Qizilpoychadan zaharlanish Qozog`istonda bir necha marta kuzatilgan. Bulardan birida 180tasi o`lgan, ikkinchisida 597 qo`y zaharlangan va ulardan 190tasi o`lgan. Har ikkala holda ham zaharlanish mollarni qizilpoycha ko`p o`sgan o`tloqlarda boqish natijasida sodir bo`ladi. Tekshirish natijasida o`z og`irligining 4%iga teng miqdorda qizilpoycha yegan qo`yda va 1% iga teng qizilpoycha yegan qoramolda zaharlanish alomatlari paydo bo`ladi. Agar qoramol bu o`tdan o`z og`irligining 5%iga teng keladigan miqdorda esa albatta o`ladi. Qizilpoycha haqida yuqorida qayd qilingan gaplarni o`qigan har qanday kishida “bu o`simlikdan insonlarga

hech qanday foyda yo`q ekan “degan fikr tug`ilishi mumkin. Haqiqatda qizilpoycha insonlar uchun foydali dorivor o`tdir.

Shifobaxshlikda boshqa dorivor o`tlar kabi eng muhim o`rinlardan birini egallaydi. O`zbekistonning ba`zi yerlarida qizilpoychani dalachoy, choycho`p yoki choyo`t deb ham atashadi. Buning sababi shuki uni zarur bo`lganda quruq choy o`rnida ishlatish mumkin. Shunki gullab turgan dalachoydan bir tutamni olib sovuq suvda chayiladi va qaynab turgan suvga solib bir minutcha qaynatiladi, so`ngra o`simlikni suvdan olib tashlanadi. Bunday choyni rangi ko`k choy rangidan farq qilmaydi. Uning hidi va mazasi haqiqiy choyga o`xshamasa ham o`ziga xos ta`mi va xushbo`y bo`lganligidan uni bemalol iste`mol qilish mumkin, Qizilpoycha Qozog`istonda “Jarabay”(Jarohatlarni boylovchi yoki jarohatlarni tuzatuvchi) deb atashar ekan.

Xalq meditsinasida qizilpoychani ko`pincha boshqa dorivor o`tlar bilan ichni qoturuvchi,qonni to`xtatuvchi, siydik va saproning ajralishini tezlashtiruvchi, o`g`riqni qoldiruvchi, ishtaxani ochuvchi, asabni bosuvchi, jarohatlarni bittiruvchi dori sifatida ishlatilinadi. Abu Ali ibn Sino uni jarohatlarni tuzatish va quymich nerv tomirlarining yalig`lanishi natijasida sodir bo`ladigan og`riqlarni qoldirish uchun ishlatishni tavsiya qilgan. Nemis xalq medisinasida qizilpoycha damlamasi turli xildagi oshqozon ichak kasalliklarini, jigar va buyrak xastaliklarini, bodni va bavosil kasalligini davolashda qo`llaniladi. Qizilpoychaning ko`k yaproqlari jarohatlarga boylansa uni tez bitiradi. Qizilpoychaning o`simlik moylaridagi damlamasini skipidarga aralashtirib bodga yo`liqqan oyoq va qo`llarga surtiladi. Spirtdagi damlamasini suvda kuchsizlantirilgani bilan milklarni mustahkamlash va qo`lansa hidni yo`qotish uchun og`iz chayiladi. Ilmiy medisinada qizilpoychaning spirtda tayyorlangan damlamasi har xil formadagi kolit kasalligini davolashda qo`llaniladi. Bu o`simlikdan olingan preparat-imanin turli xildagi teri kasalliklarini (2- va 3-darajali kuyish,terining yallig`lanishi, jarohatlar, yaralar, chipqonlar, yiringli quloq tomoq kasalliklarini davolashda

keng ko`llaniladi. Imanin surilishi bilan kuchli tumov ham bir necha soatdan so`ng tarqaladi. Qizilpoycha bo`yoqbob o`simlik sifatida ham ancha mashhur. Qadim zamonlardan beri uning gulidan sariq va yashil poya va barglaridan esa och pushti va qizil rang olinadi.Uning guli yoki bargi ezib oq qog`ozga surtilsa qog`oz qonga o`xshash to`q qizil rangga bo`yaladi. Qizilpoycha haqidagi hikoyamizni tamomlar ekanmiz shuni aytish kerakki, bu o`simlik o`z xususiyatlari bilan xuddi ertaklarda uchraydigan bir qo`lida zahar ikkinchi qo`lida esa sharob to`ldirilgan piyolalarni uzatuvchi malikalarni eslatadi.

Xulosa: Qizilpoyacha (Chelidonium majus) o‘simligi o‘zining murakkab kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Undagi alkaloidlar va boshqa biologik faol moddalar tufayli u shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lib, ayniqsa teri kasalliklari va ayrim ichki a’zolar faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu moddalar yuqori miqdorda zaharli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli qizilpoyacha o‘simligini qo‘llashda ehtiyotkorlik, ilmiy asoslangan yondashuv va mutaxassis tavsiyasi muhim hisoblanadi. To‘g‘ri foydalanilganda u samarali dorivor vosita bo‘lsa, noto‘g‘ri qo‘llanilganda inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Demak, bu o‘simlikning foydali va zararli tomonlarini chuqur o‘rganish va amaliyotda oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘simliklar sistematikasi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2021.
2. Dorivor o‘simliklar atlasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
3. Farmakognoziya asoslari. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2022.
4. Botanika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Shifobaxsh o‘simliklar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.